

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

GEOGRAFIYA KAFEDRASI

TOPONIMIKA

fanidan ma`ruzalar matni

Termiz

Ushbu ma`ruza matni O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan bakalavr bosqichi davlat ta'lim standartiga kiritilgan «Toponimika» predmeti yuzasidan namunaviy dastur asosida yozildi.

«Toponimika» fanidan tuzilgan ushbu ma`ruza matnida toponimika fanining mazmuni va vazifalari, fanning rivojlanish tarixi, geografik nomlarning paydo bo`lishi va xususiyatiga ko`ra turlari, geografik nomlarning yozilishi va talaffuzi, geografiya ta`limida fanning tutgan o`rni, O`zbekiston respublikasi va Surxondaryo viloyatining ayrim toponimlarning izohlashga doir ma`lumotlar berilgan.

Tuzuvchi: geografiya kafedrası
katta o`qituvchisi M. Umarova

Ma'sul muharrir: g.f.n. X. Abdunazarov

Taqrizchi: `oq. X. Niyozov

TAQRIZ

Mazkur ma'ruzalar matni geografii bo'limi 2-kurs talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib sahifadan iborat. Ma'ruza matnida fanning mazmuni va vazifalari, o'rganish predmeti, boshqa fanlar bilan aloqasi, toponimikaning rivojlanish tarixi, hozirgi holati, fanning rivojiga hissa qo'shgan olimlarning ishlari, geografik nomlarning paydo bo'lishi va xususiyatiga ko'ra turlarga ajratilishiga oid qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, geografik nomlarning yozilishi va talaffuzi, tarjima qilinadigan va qilinmaydigan nomlar, geografiya ta'limining toponimika bilan bog'liqligi hamda O'zbekiston va Surxondaryo toponimlarining izohiga doir ma'lumotlar topish mumkin.

Mazkur ma'ruza matnidan geografiya bo'limi talabalari va geografiya fani o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Taqrizchi: g.f.n. X. Abdunazarov

1. MAVZU: TOPONIMIKA FANINING MAZMUNI VA VAZIFASI.

R E J A:

1. Toponimika fanining mazmuni.
2. Toponimika fanining vazifalari.
3. Toponimikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

«Toponimika» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, **topos** - *yr*, **nomo** - *ism*, **nom** so'zlaridan tashkil topgan. Demak, toponimika joy nomlari haqidagi fan, geografik atama va nomlar haqidagi ta'limdir.

Toponimika fanining maqsadi geografik atama va nomlarni o'rganish, ularning o'ziga xos belgilarini aniqlash, atama va nomlarning vujudga kelishi, mohiyatini tahlil qilishdan iborat. Fanning vazifasi muayyan tildagi geografik nomlarni to'plash, ularni rivojlanishini o'rganish, areallarini aniqlash, nomlarning leksik - sematik, grammatik xususiyatlarini yoritish, toponim lug'atlar tuzish, joy nomlari transkripsiyasi singari muammolar bilan shug'ullanishdan iborat.

Umuman toponimika til haqidagi fanlar tizimiga mansub, fanlardan biri, lingvistikaniig bir tarmog'idir. Biroq joy nomlari boshqa so'zlardan farq qiladi. Ular-muayyan hududda tarkib topadi, geografik konuniyatlar, tushunchalari va terminlarni (relyef shakllari, daryo tarmoqlari, ko'llar. muzliklar, usimliklar va hayvonlar nomlarini, foydali kazilmalarni) aks etgiradi. Shuning uchun toponimika geografiyaning ajralmas qismi xisoblanadi, toponimlar uzoq yashaydi. Ularda har xil tarixiy voqealar. tarixiy shaxslarni nomlari aks etgan bo'ladi, Shuning uchun bu fan tarix fani bilan xam bog'livdir.

Shunday qilib toponimika tilshunoslik, tarix va geografiya fanlari o'rtasida vujudga kelgan. Atama va nomlar esa geografiyani tilidir- Geografiya va geografiya –ta'limini atama va nomlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, mashxur geograf olim E.M.Murzayev ta'kidlashicha jamiyat hayotini geografik nomlarsiz tasavvur ztish mumkin emas, ular hamma yerda uchraydi va bizni fikrimizga yoshlikdai hamroh bo'ladi. Yer sharida ^xamma narsa o'z adresiga ega, bu insonyai tugilgan joyida boshlanadi, Inson' yashaydigan xamma qishloq va shahar, mamlakatning o'z nomi bor, Har kuni o'qiladigan gazeta, jurnal, klassik. adabiyot, madaniyagg va fanni rivojlanishi biziing tilda yangi geografik nomlar zahirasini ko'payishiga olib keladi.

Jamiyat tuzumidagi uzgarishlar, ya'ni ijtimoi tuzumning uzgarishi, davlatning milliy siyosati hududlarning kaysi davlatlarga mansubligi, davlat siyosati, mailakatlarda kaysi xalq qanday mavqeyga egaligi, teografik kashfiyot, tadqiqotlariing kimlarga mansubligi geografik atama va nomlarda o'z ifodasini topadi.

O'zbekiston mustakillikka ershigandan keyin uning xududida geografik nomlarning ko'pgchiligi o'zgardi va uzgarmoqda. O'zbekistondagi geografik ob'yektlarga Rossiya imperiyasi bosib olgandan keyin sobiq Sovet davrida qo'yilgan nomlar qayta ko'rib chiqilib, ularga o'zlariinng kadimiy tarixiy nomlari qaytarilmokda, Mustaqillik bilan boglik yangi nomlar paydo bo'lmoqda.

Geografik atama va nomlar ta'limi "O'zbekiston Davlat tili" (1989 yil 21 oktyabr) va "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy- hududiy tuzilish, toponimyk obektlarga nom berish va ularnshg nomlarini uztartirsh masalalarini xal qilish to'grisida" (1996 yil 21 dekabr)haqidagi qonunlarni hayotga tadbiq etish zamon

talablariga javob beradigan geografiya ukituvchilarini tayyorlash munosabati bilan katga amaliy ahamiyatga egadir, 1995 yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat tili haqidagi konunga uzgartirishlar va kushimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qabul kildn. Davlat tili haqidagi qoiun (yangi taxrirda) tasdiqlandi, UNING 22-moddasida shunday deyilgan: "Respublikaning ma'muriy xududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari va geografik ob'yektlari nomlari Davlat tilida aks ettiriladi", "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy hududiy tuzilish, toponimik obektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida" qonunida ta'kidlanishicha ushbu konun ma'muriy xududiy birliklar, aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlariga, shuningdek korxonalar muassasalar tashkilotlar, tabiiy geografik, geologik va boshqa ob'yektlarga nom berish va ularni nomini o'zgartirish tartibini belgilaydi.

1996 yil 31-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik ob'yektlarni tartibga solish to'g'risida" qaror qabul qildi. Karorda joylarda toponimik ob'yektlarning eski tuzumga xizmat kiladigan, xalkimizning tarixiy milliy ananalariga bogliq bo'lmagan nomlarning sakldnib turganligi qoralandi va boshqa nomlar bilan almashtirish lozimligi, bu ishni boshlash va tugallashni aniq muddati belgalandi.

2-MAVZU. TOPONIMIKA FANING RIVOJLANISH TARIXI.

REJA:

1. IX-XII asirlardagi toponimik tadqiqotlar.
2. Toponimikaning XX-asrdagi taraqqiyoti.
3. Hozirgi zamonda toponomik tadqiqotlar mazmuni

Toponimika muammaolari kishilarni qadimdan qiziqtirib kelgan. Ajdodlarimiz - Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa olimlar o'z zamonasida joy nomlarining izohi, tarixi va to'g'ri yozilishiga e'tabor qaratganlar.

X-asr boshida Buxoro shahri tarixini yozgan Narshahiy, Buxoro shahrining Numuchkat Madinat-at-tujor (savdogarlar shahri) Madinat Sufriya (misgarlar shahri), Faxira kabi nom yepitetlari borligi haqida ma'lumot yozib qoldirgan. Narshahiy Zarafshonning ayrim qismlari Ruduzar, Xaromkom deb atalishini Shopirkon aslida Shopur kom ya'ni «Shopur-qazdirgan ariq» degan ma'noni anglatishini yozadi .

Buxoroda sharq uyg'onishi davrida yozilgan, biroq avtori hozirgi kunda ham noma'lum bo'lgan «Hudud-ul-olam» deb sarlavhalangan qo'lyozmada Sirdaryoning asl nomi Hashart yekanligi haqida yozib qoldirilgan. O'sha davrda yashab ijod etgan yana bir vatandosh ajdodimiz Mahmud Qoshg'ariydir. Mashhur tilshunos, va sayyoh sifatida fan olamida o'ziga xos mavqeyiga ega. Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» asari «Joy nomlarining lug'ati» sifatida o'z davrining mashhur asarlari qatoridan joy oladi. Unga ilova qilingan dunyo xaritasidagi 100 ga yaqin ma'lum nomlardan tashqari «Devon» tekstida juda ko'plab mayda nomlar tilga olingan, ularga geografik va etimologik izohlar berilgan.

Sharq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi. Abu Rayhon Beruniyning geografiya fani, shu jumladan toponimikaning taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan

harakterlanadi. Abu Rayhon Beruniy joy nomlarining tarixi, ularning to'g'ri yozilishiga bo'lgan qiziqishlari haqida o'zi yozib qoldirgan ma'lumotlari asosida bilib olish mumkin. Beruniyning «Hindiston» asarida toponimikaning qonuniyatlari haqida ham yozadi. Olimning ushbu asarida yozilishicha yunonlar va arablar turkiy so'zlarni buzib aytganlari tufayli so'zlarning ma'nolari o'zgarib ketgan. Masalan, tosh turkiycha ism bo'lib shosh ko'rinishini olgan. «Toshkand-toshli qishloq» demakdir. Ptolomeyning «Jug'rofiya» kitobida u «Burch-al-hijora» (Tosh qal'a) deb nomlangan.

Beruniyning yozishicha ayrim joylar o'sha yerda uchramaydigan buyumlar nomi bilan atalar ekan. Masalan, Hind okeanidagi Ėqut orolida mutlaqo Ėqut yo'q, faqat u yerdagi ayollarning go'zalligi tufayli orol shunday deb nomlangan. Abu Rayhon Beruniy joy nomlarining to'g'ri yozilishi bilan ham qiziqqan. Jumladan, Xindistondagi Multon shahri nomiga tarixiy manbalarga tayanib quyidagicha izoh beradi: Multonning asl nomi Koshiyapura edi, keyin Hansapura, keyin Bagapura, keyin Sanbhhapura va keyin Mulastxona, ya'ni «Asl joy» deb nomlandi: Mul-asl, Tona-joy demakdir.

Toponimika fani taraqqiyotida XV-asrda yashab o'tgan mashhur olim, sarkarda, shoir, sayohatchi Zahiriddin Muhammad Boburning ulkan hissi bor. Uning mashhur «Boburnoma» asarida joy nomlarining yozilishi talaffuzi haqida qimmatli malumotlar bor. Asarda yetimolagik izohlar va taqqoslarga katta e'tibor qaratilgan. «Sayhun daryosikim xo'jand suyiga mashhurdir», «Axsiiy kitoblarda axsikar deb bitirlar», «O'rtepakim, asl oti kitoblarda Ushrushona va Ushrui ham bitirlar», «Kesh shahrini bahorlar sahrosi va shahri va bomiiy ca tomi sabz bo'lur uchun ham Shahrissabz ham derlar». Bobur qayroqqum cho'li haqida shunday deydi: «Xo'jand bilan qandi bodim o'rtaida bir dasht tushibdur», «Ho darvesh» deb ham atalar. Hamisha bu dashtga yel bo'lur, derlarkim, bir narsa darvesh bu dashtga qattiq yelga yo'liqib, bir-birini topolmay, «Ho darvesh» deganga halok bo'lib – turlar, andan so'ng bu dashtni «Ho darvesh derlar» Yoki: taqdir hargiz qor unsimas bu jihatdan g'olib qo'hisafid (Oq tog') derlar.

«Boburnomada» homolay degan nom uchramaydi lekin Bobur himolay tog'lari yetaklarini Sevolakparvat deb ataydi bu nomning ma'nosini aytib beradi. Bu tog'ni hind yeli «Sevolak parvat» derlar hind tilida Sevo-chorak, Lak- yuz ming, Parvat –tog', ya'ni chorak va yuzming tog' kim, yuz yigirma besh ming tog' bo'lgan.

Sevolak parvat degan nom hozir ham geografik adabiyotlarda uchraydi bu himolayning shimolda janubgacha cho'zilgan, lekin pasroq tog' oldidir. Toponimika maxsus fan sifatida XX asrning 50 yillaridan so'ng jadal taraqqiy yeta boshladi. Bu davrda fanga oid ko'plab ilmiy adabiyotlar, maxsus qo'llanma va lug'atlar tuzildi.

Toponimika va geografik nomlarning to'g'ri yozilishiga doir ilmiy anjumanlar o'tkazildi, geografiya institutlari qoshida «Toponimika bo'limi» tashkil qilindi. Jumladan; Ozorboyjonda Geografiya instituti qoshida Toponomika bo'limi tashkil qilina va unda uzoq yillar davomida keksa Toponimist olim Ramzi Yuzbosh rahbarlik qildi.

Toponomikaning kartagirafiyadagi ahamiyati va aksincha kartografiyaning toponomikadagi roli .YE.M.Pospelovning tadqiqotlarida yoritildi qozog'istonda Q.Qanqashboyev, A.Abdramonov va To'ychiboyev, Turkmanistonda S.Otaniyozov,

Belarusda B.A. Juchkiyevich, O'zbekistonda S.Qorayev, H.Hasanov, T. Nafasov, Z. Do'simovlar toponimikaga bag'ishlangan ko'plab asarlar, maqolalar, monografiyalar yaratdilar. (S.Qorayevning "Toponomika", H. Hasanovning "Geografik nomlar", "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" asarlarida Vatanimiz toponomikasiga oid qiziqarli ma'lumotlar bor).

Chet mamalakatlarida ham toponomika va transkripsiya bilan shug'ullanuvchi muassasalar bor. Masalan, Buyuk Britaniyada geografik nomlar komiteti , AQShda geografik kengash, Belgiyada toponomika va dialektik kengash va boshqalar.

Polshada geografik byulleten nashr yetilgan, unda okeanlar, dengiz, ko'rfaz, bo'g'oz, yarim orol va orollarning polyakcha yozilishi ko'rsatilgan. Shvetsiyada geografik nomlarga bag'ishlangan maxsus jurnallar chiqariladi.

3-MAVZU: GEOGRAFIK NOMLARNING PAYDO BO'LISHI VA XUSUSIYATIGA KO'RA TURLARI

Geografik nomlarnyng kelib chiqishiga asosiy sabab ularga bulgan ehtiyojdir, bular insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab kerak bo'la boshlagan. Dastlabki geografik nomlar juda oddiy bo'lgan. Masalan, tog', daryo, ko'l va boshqalar. Joy nomlari turli-tuman, ajoyib va g'aroyibdir, soni esa juda ko'pdir. Mavjud geografik nomlarning-kelib chiqishiga qarab shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1) Joyning holati, hosiylati, yer yuzasi va iqlimiga bog'liq nomlar.

Yer yuzasida «shimoliy», «janubiy garbiy va sharkiy" ma'nolarni anglatadigan burun orol va daryolar bor. Masalan, Nordkap (Shimoliy burun), Xokkaydo (Shimoliy orol) va boshkalar.

Joyning havosi va quyoshga nisbatan holatini ifodalovchi nomlar Masalan, Kungay Olatov, Terskayey Olatov, Sovuqdara. Chili (sovuq), yer yuzasi rel'yefiga boglik nomlar, ayniqsa ko'p masalan, Qora qurum-suvsiz o'simliksiz xunik tosh uyimlari demakdir.

Nurash natijasida hosil bo'lgan relief shakllari Odamtosh, Quytosh, teshiktosh, tor daralar Zindonsoy, O'radaryo deb atalgan. Geografik ob'yektlarning ko'rinishi xususiyatidan kelib chiqqan nomlar Beshpanja, Og'zikeng, Ichaksirt, Tumshiqcho'qqi va b.

2. Suv ob'yektlariga bog'lik nomlar.

Daryo, ko'l va quduqlar katta-kichikligiga, suvning rangi sho'rliqi, tozaligi, chuqurligiga qarab turlicha nomlangan. Suv tiniq va toza bo'lsa Oynako'l, Oynabuloq, chuqur va tiniq bo'lsa Ko'ksuv, kordan boshlangan suvlar Oqsuv loyqarog'i ayron ko'l, Sarisuv deb atalgan. Daydi suvni Farg'onada Tentaksoy deyilgan. Surxondaryoda Jinni daryo ham bor. U bohorda to'lib oqib toshib ketadi, qirg'oqlarni upiradi, yemiradi, yozda esa suvi qurib qoladi.

Suv ob'yektlarini suvi sho'r yoki nordon bo'lsa, Sho'rquduq, Achchiqko'l, Sho'rbuloq deb ataladi. Yer ostidan suvlar fontansimon otilib chiqsa - qaynar bulok deb atalgan. Agar buloqlar suvi issiq va mineralli bo'lsa Issiqsuv, Obigarm, Obirahmat, qo'tirbulok, Arashon deb ataladi.

3. O'simlyk va xayvonlarga boglik nomlar.

Bunday nomlar keng tarqalgan. Masalan, Konibodom ya'ni Bodom tahridir deb xatto Bobur yozib ketgan. Amudaryoda Maymunto'qay nomli chakalakzor bor.

G'arbiy Yevropadagi Shvarsvald («Qora o'rmon»), Janubiy Afrikadagi Arakon tog'lari (Drakon – o'simlik), Shimoliy Amerikada Florida (ko'kalamzor), Kokos orollari javzi Xindiy (Yongok), Bukovina (buk), O'zbeknstonida Jiyda-buloq, Archazor, Chilonzor kabi nomlar bor. Xalq geografyak ob'yektlarni alohnda xususiyatlarini e'tiborga olib ko'ygan nomlar ham bor. Nom berishda odam va hayvonlarni aloxida. a'zolariga e'tibor bergan. «Ogzi», «Bo'rni», «qulogi», «Shoxi» va boshkalar.

4. Foydali qazilmalarga bog'liq nomlar.

Bunday nomlarning bir qismi foydali kazilmalar ochilganga kadar berilgan, masalan, Gazli, Oltinbel. Bir qismi esa konlar ochilgandan keyin berilgan. Masalan, Toshko'mir, Maylisuv, Mayliko'l, Qirgizistonda, Jezqazg'an, "Temirtau Qozogistonda, Nebitdog' Turkmanistondadir.

5. Xunar-kasbdan olingan nomlar.

Bunday nomlar O'zbeknstonida ayniqsa keng tarkalgan; buyokchi, Sovungar, Egarchi, Pichoqchi, Tokchilik, G'o'zabozor Chuponbozor, Ukchi Tababkucha Qalandarxona Urda kabi nomlar aholini hunar-qasbidan merosdir.

6. Xo'jalik buyumlardan olingan nomlar.

Xujalik buymlari nomlari xam geografik nomlarning kelib chiqishida faol qatnashgan masalan, Qozon suzi bu turkcha so'z bo'lib u ruslar, ukrainlar belaruslar, bolgarlar tomonidan qabul qilingan. Qozoq so'zidan kelib chiqqan bir qancha nomlar mavjud. Kozon shaxri-Tataristonda, Qazanjik Turkmanistonda, Qazonbuloq-Ozarboyjonda, Qozonsuv shimoliy Kavkazda, Qazonlik-Bolgariyada va ho.

7. Halq, qabila va urug'larga bog'liq nomlar.

Topaminikada etnonimlar deb ataladi. Bunday nomlar tarixiy davrlarda xalqlarning qayerlarda yashaganligidan va o'zaro aloqalaridan guvohlik beradi. Bu nomlar Turkiston xududida juda ko'p uchraydi masalan Ayronchi, Arab, Asaka, Baliqchi, Boyovut, Barlos, Bo'ka, Durmon, Valiq va boshqalar. Halq, qabila va urug'larga bog'liq nomlar boshqa o'lkalarda xam keng tarqalgan masalan qirg'iz tizmasi armon tog'i Chukotka yarim oroli va boshqalar. Xozir mustaqil bo'lgan deyarli xamma respublikalar nomlari xalq nomidan olingan. Qirg'iziston, qozoq Qozog'iston, tatar Tatariston, va boshqalar.

8. Axolining ijtimoiy axvolidan kelib chiqqan nomlar.

Bu nomlar ma'lum hududda yashovchi aholining ijtimoiy strukturasi ifoda etadi. Bunday nomlar O'zbekistoniing deyarli hamma QISHLOK va shaharlarida uchraydi. Misol, devonxona, qalandarxona, darveshxona va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Aholini ijtimoiy axvolini ifodalovchi nomlar boshqa mamlakatlar xudidida ham keng tarqalgan. Masalan: Belarusda «Besxlebach» (Nonsiz), «Koroyedlar» («Po'stloqxo'rlar»), «Moxoyedlar» («Moxxurlar») va boshqalar.

9. Shaxslarning ismi –famiyalariga qo'yilgan nomlar.

Dunyo va xaritalarda bunday nomlar juda keng tarqalgan, bularni ko'pchiligi jasur sayyohlar, olim va dengizchilarni, shoir va yozuvchilarni, davlat va jamiyat arboblari nomlariga quyilgan.

10. Afsonaviy va diniy nomlar.

Dunyo xaritasida afsonaviy va diniy nomlar ham ko'plab-uchraydi, bunga misol qilib O'sh shahri yaqinidagi Taxi Sulaymon, Amudaryodagi Duldul o'tagan (Xazrati Alining uchar oti daryoning shu joyidan sakrab o'tgan emish). Ohangarondagi Ashning qoyasi, Sirdaryodagi Farxod qoyasi, Fargona vodiysidagi

Shohimardon, Toshkentdagi Kaykovus arigi, Turkmaniston chegarasidagi Zulfiqor yo'lagi (Alining qilichi chopgan dara), Shri Lankadagi Odamoto chuqqisi (guyo odam alayhisalom usha yerda osmondan tushgan emish) va boshqalarni kursatish mumkin. Afsonaviy nomlar orasida xayoliy va faroziy nomlar, ya'ni biror voqea yoki mish-mish gaplar sababli bor deb taxmin qilingan. Aslida mutlaqo bo'lmagan joylarning nomlari ham uchraydi: Ya'juj - Ma'juj yeri, Saddi Iskandar, Kuxikof Sannikov yeri va hakoza.

11. G'aroyib nomlar.

Dunyo xaritasida hazilnoma, kulgili yoki vaximali nomlar xam uchraydi. Masalan, Angliyada - «Raxming kelsin», «So'qir kuyevlar», «qurbaqalar», «Kalamushkala», 3o'r muxabbat» «Kurinmay qoldi», «Piyanistanning tovbasi» nomli shaxarlar, Italiyada va Uralda It g'ori, Amerikada «Ajal vodiysi», Eronda «Dashti noumid» kabi nomlar bor.

12. Migrasion nomlar.

Bu geografik nomlarning bir xududdan ikkinchi xududga olib kelinishi. Bunday jarayon ikki yo'l bilan sodir bo'ladi.

1) Aholi migrasiyasi natijasida eski nomlar to'g'idan-to'g'ri yangi joylarga ko'chiriladi. Masalan, Amerika materigida yevropadan ko'chirib kelingan ko'plab joy nomlari uchraydi.

2) Bir xududn ikkinchi xududga o'xshatish natijasida kelib chiqqan nomlar. Masalan, Venesuela mamlakatining nomi kichik Venesiya ma'nosini anglatadi.

13. Xato nomlar.

Dunyo xaritasida mazmuniga mos kelmaydigan haqiqatga asoslanmagan geografik nomlar ham uchrab turadi. Masalan, Tinch okeaning nomi xatodir. Nomi «Tinch» bo'lgany bilan o'zi juda katga to'liqlar, buronlar makoni, Osiyo deb dastlab O'rta dengizning sharqiy soxillari tushunilgan. Bu nom asta –sekin umumlashib, Yaponiyagacha tarqalgan, Osiyo deganlarida asos bor. Osiyo «asu», «kun chiqar»-degan so'z.

14. Yangi zamon nomlari.

Bunday nomlar dastlab sobiq Sovet ittifoqida, boshqa socialistik va ozodlkka erishgan mamlakatlarda vujudga kelgan. Oktabr to'ntarishidan so'ng K.Marks, F.Engels, V.I.Lenin, Komunistik partiya va sovet davlatining atoqli arboblari, inkilob, grajdan va Ulug' Vatan urushlari qaxramonlari, atoqli olimlar, adiblar (Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Lomonosov, Pushkin, Furqat, Hamza va boshqalar) nomlari bilan geografik ob'yektlar atalgan edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, sobiq Sovet davrida qo'yilgan ko'plab nomlar o'zgartirilmoqda. Masalan, Uzbekiston tog'laridagi eng baland nuqtaga KPSSning XXII-s'yezdi nomi qo'yilgan edi. Hozir uni tarixiy nomi Xazrati Sulton deb atala boshlandi.

4-MAVZU: GEOGRAFIK NOMLARNING YOZILISHI VA TALAFFUZI.

REJA:

1. Geografik nomlarni to'g'ri yozilishining ahamiyati
2. Geografik nomlarning transkripsiyasi
3. Geografik nomlarning yozilish qoidalari
4. Tarjima qilinadigan va qilinmaydigan nomlar

Dunyoda besh yarim mingdan ortiq tillar mavjud. Ularning hammasida geografik nomlar bor. Ularning hammasida geografik nomlarni yozishga doir qoidalar bor. Bu qoidalarni aloqa, transport, tashqi savdo, diplomatiya xodimlari, tadqiqotchilar bilishi shart. O'zbekistonda geografik nomlar to'g'ri yozish, yozilish qoidalari maxsus atamashunoslik qo'mitasida ishlab chiqilgan. O'zbek tilida darsliklar, ilmiy ommabop kitoblar, kundalik matbuot, radio va tele eshittirishlar orqali turli xildagi minglab joy nomlari haqidagi ma'lumotga ega bo'lamiz. Bu nomlarni o'zbek tilida qanday yozilishi va bu masalaning to'g'ri hal etilishi madaniyatimizning muhim bir sohasidir, ammo nomlarni to'g'ri yozish ancha murakkab ish. Chunki joy nomlari bir tomondan tarixga, bir tomondan geografiya va tilshunoslikka tegishli bo'lib, qisman etnografiya, arxeologiya, botanika va boshqa sohalarga bog'liq. Joy nomlarning to'g'ri yozilishi toponimik transkripsiyadir. Transkripsiya terminining ma'nosi so'zlarni talaffuzga qarab yozish, quloqqa qanday eshitilgan bo'lsa shunday yozish demakdir. Ammo transkripsiya hech qachon mukammal bo'lmaydi. Chunki boshqa tillarda mavjud bo'lgan harf va tovushlarning ba'zisi masalan, ruscha («O» va «H») ba'zisi bizda bo'lmasligi mumkin.

Bunday tovushlar bizda unga yaqinroq bo'lgan boshqa so'zlar bilan beriladi. Demak bizning transkripsiyamiz shartli fonetik transkripsiyadir.

Geografik nomlarning yozilishiga doir quyidagi qoidalar mavjud:

1. Geografik nomlarning a'lohida yozilishi.

- a) Geografik nomlar sifat, son va otlardan tashkil topgan bo'lsa. Masalan, yaxshi umid burni.
- b) Sifatlar bilan birga kelsa. (Masalan, katta, yuqori, yangi, katta Qullar ko'li);
- v) Nomlar kishilarning ismi va familiyasidan tashkil topgan bo'lsa (Masalan, Dmitriy Laptev oroli).

2. Geografik nomlarning defis yordamida yozilish.

3. Geografik nomlarning qo'shib yozilish qoidalari.

Nomlar bir necha so'zlardan tashkil topgan bo'lsa alohida yoki defis bilan yoziladi. Masalan, dor-ussalom.

Zemlya so'zi orollar va dengiz bo'yi xududlarda hamma vaqt katta harflar bilan yoziladi. Masalan, *Zemlya* Fransiya Iosifa.

5-MAVZU. GEOGRAFIYA TA'LIMI VA TOPONIMIKA.

REJA:

- 1. Geografiya fanining toponimika bilan bog'liqligi
- 2. Geografiyada joy nomlarini bilishning ahamiyati
- 3. Geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish

Geografiya fani millionlab joy nomlariga egaligi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Dengizlar va daryolar, tog'lar va cho'qqilar, mamlakatlar va shaharlar, orollar, yarim orollar ularning hammasi yerning tilidir. Hozirgi zamon jamiyatini geografik nomlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Geografik nomlar muayyan xududda tarkib topadi, geografik qonuniyatlar, tushunchalar va terminlarni (relyef shakllari, daryo tarmoqlari, ko'llar, o'simlik va hayvonlar nomlarini, foydali qazilmalarni) aks ettiradi. Shuning uchun toponimika geografiyaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Geografiya fanining o'qitish orqali har darsda turli tildagi joy nomlari bilan tanishiladi. Geografiya fanida o'tilayotgan darslar yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun

shuningdek, fani toponimika bilan bog'lab o'tishda geografik o'yinlarning roli kattadir. Bunday o'yinlarga nomlar o'yini (nomlarga oid) savol javoblar. Geografik loto, viktorina va krossvordlar misoldir. Shu bilan birga qiziqarli savollar berish orqali o'quvchilarni xaritaning o'rganishiga da'vat etish mumkin. Masalan, Elburs, Elbrus va Erebus nomlari qayerda joylashgan (javob Elburs Eronda, Elbrus Kafkazda va Erebus Antarktidada) yoki toshbaqa orollari, ayiq ko'li, kenguru oroli, ilon o'tdi darasi, qirg'iy oroli, it orollari, echki oroli qayerda joylashgan (javob toshbaqa orollari-Galapagos oroli, ayiq ko'li-Shimoliy Amerikada, kenguru oroli-Avstraliyada, ilon o'tdi darasi-Jizzax viloyatida, qirg'iy oroli-Azor oroli, it orollari-Kanar oroli, echki oroli Kapri orolidir). Har bir geografik o'rinda biroq tarbiyaviy maqsadlar nazarda tutilishi kerak. Chunki o'tilgan mavzuni mustahkamlash, materialini takrorlash geografik o'yinlar orqali kechadi.

6-MAVZU. O'ZBEKISTON VA SURXONDARYO TOPONIMLARINING MA'NOSI.

REJA:

1. Toponimlarning katta-kichikligi
2. O'zbekiston xududida uchraydigan ayrim tarixiy geografik nomlarga izoh.

O'zbekiston xududida toponimlar juda murakkab. Chunki mamlakatda turk va eron tillari bir biri bilan qo'shilib ketgan. O'zbekistondagi ba'zi shaharlar bir necha ming yillik tarixga ega bo'lib, uzoq yillar mobaynida geografik nomlar o'zgarib bir shakldan ikkinchi shaklga o'tgan. O'zbekiston xududida arab, Eron, mug'ul hatto sanskrit tilida uchraydigan nomlar uchraydi. Hozirgi kunda O'zbekistonda geografik nomlar 4 guruhga ajratiladi.

1. Eng qadimgi nomlar (Tarixiy shaharlar nomi masalan, Samarqand, Buxoro va ho.)
2. Eron tilidan kelib chiqqan nomlar (masalan, dug'oba, tuzkon va b.).
3. Turkiy tilidan kelib chiqqan nomlar (Sarisuv)
4. Slavyan tilidan kelib chiqqan nomlar.

O'zbekiston xududidagi geografik nomlarning kelib chiqishi, etimologiyasiga alohida e'tibor berish kerak. Toponimikada aniq va asosli izohlar birga taxmin va farazlar ham ko'p. Shuning uchun ushbu mavzuda mamlakatimizdagi geografik nomlarni saralab kundalik matbuot va o'rta maktabda ko'proq tilga olinadigan nomlarni izohini keltiramiz.

Amudaryo – uning dastlabki nomi «Ukus» o'zbek tilida *suv daryo* deb tarjima qilinadi. Qadimgi olimlar uni «oks» tarzida yozib g'arb dunyosiga ma'lum qildilar. Shundan «oks» Amudarening yunoncha nomidan paydo bo'ldi. Ushbu daryo qadimda «arang», o'rta asrlarda «jayxun», «omul», «vaxshu» va boshqa nomlar bilan yuritilgan. Mo'ynoq orol dengizi janubidagi shahar. Mo'yin – bo'yin, oq aslida – ak kichik so'zlardan iborat bo'lib kichik bo'yin ma'nosini bildiradi. Ohangaron O'zbekistonda shu nomda shahar daryo plato mavjud. Bu joyda o'rta asrning boshlarida temirchilik rivojlangan bo'lib, temirchilar degan ma'noni anglatadi. Chortoq Namangan viloyatidagi tuman. Buni to'rt tog' deb noto'g'ri izohlaydilar. Qadimda to'rt gumbazli inshoot ark, qorovulxona, qo'rg'on chortoq deyilgan. Chimyon Toshkent viloyatidagi cho'qqi va kurort nomi. Ruschada Chimgan aslida Chimgon. Chim-o'tzor, shirin ajriq, gon qo'shimchasi-suv daryo ma'nosini anglatib

chimgon keyinchalik talaffuzda chimyonga aylangan. Tuyatortar Zarafshondan Jizzaxga keltirilgan kanal nomi. Kanal qurilishida asosiy transport vositasi tuya bo'lgani uchun shunday nomlangan. Tuyamo'yin Amudaryoning quyi oqimidagi suv ombori. Chetdan qaraganda ushbu joy tuyaning bo'yiniga o'xshaydi. Aslida tog', daryo va qumlik joylarning toraygan qismi tuyamo'yin deb atalgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanov H. H. Geografik nomlar imlosi. Fan. 1962 y.
2. Hasanov H. H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. T., 1965 y.
3. Hasanov H. H. Geografik nomlar siri. T, O'zbekiston, 1985 y.
4. G'ulomov P. N. Jo'g'rog'fiya atamaları va tushunchalari izohli lug'ati. T., O'qituvchi, 1994 y.
5. Qorayev S. Toshkent toponimlari. T. Fan. 1991 y.
6. Qorayev S. va b. Geografiyadan izohli lug'at. T., O'qituvchi, 1979 y.

MUNDARIJA

- 1 Toponimika fanining mazmuni va vazifasi.....
- 2 Toponimika fanining rivojlanish tarixi.....
- 3 Geografik nomlarning paydo bo`lishi va
xususiyatiga ko`ra turlari.....
- 4 Geografik nomlarning yozilishi va talaffuzi.....
- 5 Geografiya ta'limi va toponimika.....
- 6 O`zbekiston va Surxondaryo toponimlari
ma'nosi.....
- 7 Adabiyotlar ro`yxati.....

